Annotatsiya: Ushbu maqolada global va milliy miqyosda yashil iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, har bir bosqichning maqsadlari va qabul qilingan hujjatlar ahamiyati batafsil yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyati va dolzarbligi qiyosiy tahlillar asosida asoslangan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, konsepsiya, yashil iqtisodiyot, ekologiya, Bruntland komissiyasi, Rio deklaratsiyasi, Kioto protokoli, Parij iqlim kelishuvi.

Abstract: The article examines in detail the stages of green economy development at the global and national levels, the goals of each stage, as well as the significance of the adopted documents. The necessity and relevance of the transition to a green economy in Uzbekistan is also based on a comparative analysis.

Key words: sustainable development, concept, green economy, ecology, Brundtland Commission, Rio Declaration, Kyoto Protocol, Paris Climate Agreement.

Аннотация: В статье подробно рассматриваются этапы развития зеленой экономики на глобальном и национальном уровнях, цели каждого этапа, а также значение принятых документов. Необходимость и актуальность перехода к зеленой экономике в Узбекистане также основана на сравнительном анализе.

Ключевые слова: устойчивое развитие, концепция, зеленая экономика, экология, Брунтландская комиссия, Декларация Рио, Киотский протокол, Парижское климатическое соглашение.

KIRISH

So'nggi o'n yillik davrda ko'plab davlatlar "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasini o'zining strategik ustuvor vazifalaridan biri sifatida qabul qilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi asosiy g'oyalar va tamoyillar xalqaro miqyosda belgilab qo'yilgan bo'lsa, aniq dastur va maqsadli ko'rsatkichlar milliy darajada amalga oshiriladi. Parij kelishuvi doirasida O'zbekiston 2030-yilgacha issiqxona gazlarini chiqishini YAIMga nisbatan 35%ga kamaytirish bo'yicha olgan majburiyatlarini tasdiqlaydi. Bu maqsadga erishish uchun "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilindi [1]. Natijada, energiya samaradorligini ikki baravarga oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25%dan ziyodga yetkazish, sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish asosida ular energiya samaradorligini kamida 20%ga oshirish va sanoat jarayonlariga ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash nazarda tutilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga oid nazariy va amaliy masalalar ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Bu tadqiqotlar energiya samaradorligi, tiklanuvchi energiya manbalari, resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan chambarchas bog'liqdir.

Xususan, xorijiy olimlardan S. Beder, G. D. Sweeney, Herman Daly, Joshua Farley, Robert Costanza, David Stern, Markus Hagedorn, Tim Jackson kabi olimlarning tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, salohiyati, o'lchamlari, muammolari va ularni hal etish yo'llari haqida fikrlar bildiriladi.

Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlaridan V. Frolov, A. Shevchuk, A. Lebedev, N. Grigoryeva, Y. Danilovlarning yashil iqtisodiyotga oid muhim tadqiqotlarini keltirish mumkin. Ularning tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotning asoslari, tamoyillari, yashil iqtisodiyot modellari, mexanizmlari, energiya samarador texnologiyalar va ularni tadbiq etish istiqbollari, yashil iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri kabi masalalar o'rganilgan.

Mahalliy olimlar va tadqiqotchilardan A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, A. A. Isadjonov, Z. Nurov, N. I. Abdurahmonov, Sh. A. Sultonov, M. M. Hamdamovlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga oid muhim tadqiqotlar olib borganlar.

Biroq, e'tirof etish lozimki, yashil iqtisodiyot bilan bog'liq asosiy nazariya va tushunchalarni aniqlash va tavsiflash va ularning barqarorlik bilan bog'liqligini ko'rsatish hali to'liq o'z yechimini topgani yo'q. Shu sababli, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillari tahlillari dolzarbdir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va hukumatining mavzuga oid qaror va farmonlari, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) hujjatlari asos qilib olingan. Tadqiqotda induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror rivojlanish (Sustainable Development) o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan uzluksiz, davomiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan konsepsiya bo'lib, uning asosiy maqsadi – resurslardan kelajak avlod ehtiyojlari uchun saqlab qolgan holda foydalanish, tabiatga zarar keltirmasdan, o'zgarishlarga mos rivojlanishni ta'minlashdir. Agar mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga asosan qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni qazib olish va foydalanish hisobiga erishiladigan bo'lsa, ularning kamayib borishi kelajakda barqaror o'sish darajasiga xavf tug'diradi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini ilk bor 1987-yilda Brundtland komissiyasi tomonidan *"Bizning umumiy kelajagimiz"* nomli hisobotda yanada aniqlashtirildi. Unda ilk bor barqaror rivojlanishga ta'rif berilgan: "Barqaror rivojlanish – bu hozirgi avlodlar o'z ehtiyojlarini qondirishga harakat qilib, kelajak avlodlar uchun imkoniyatlar qoldirishga qaratilgan rivojlanish" deb qayd etilgan [4].

Barqaror iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri - yashil iqtisodiyot bo'lib, u ekologik, energetik va texnologik rivojlanish yo'nalishlarini qamrab oladi. Yashil iqtisodiyot (Green Economy) – ekologik barqarorlikka erishish maqsadida iqtisodiyotni qayta tashkil etish modelidir. Uning asosiy maqsadi - atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy o'sish bilan ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot energetika, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida ekologik tadbirlarni qo'llashni nazarda tutadi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishini bir nechta bosqichlarga bo'lish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Yashil iqtisodiyotni rivojlanish bosqichlari.

Bosqichlar	Tadbirlar	Qabul qilingan hujjatlar va mazmuni
1-bosqich (1970-1980 yillar)	BMT Atrof-muhit konferensiyasi (UN Conference on the Human Environment) - Stokgolm konferensiyasi (1972 yil).	"Stokgolm deklaratsiyasi". 26 ta prinsipdan iborat bo'lib, bu printslar insonlarning tabiat bilan barqaror munosabatda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.
2-bosqich (1980-2000 yillar)	- 1987 yilda Brundtland komissiyasi (World Commission on Environment and Development - WCED) tashkil etildi.	Barqaror Rivojlanish Konsepsiyasi (1987); BMTning Barqaror Rivojlanishga oid strategiyasi, bunda "Barqaror rivojlanish" tushunchasini birinchi marta to'liq belgilab berdi.
	- 1992 yilda BMTning Braziliyada bo'lib o'tgan BMTning "Atrof-muhit va Rivojlanish" bo'yicha sammiti (Rio Earth Summit).	- "Rio deklaratsiyasi" va "Atrof-muhit va rivojlanishga oid harakatlar" kabi muhim hujjatlar qabul qilindi. Atrof-muhit va barqaror rivojlanishga oid umumiy printslarni shakllantirdi. Shuningdek, Rio sammiti "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (SDGs) bo'yicha ilk asoslarni shakllantirdi.
	- 1997 yilda BMT tomonidan Yaponiyaning Kioto shahrida Atmosfera nisbatan issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish bo'yicha o'tkazilgan uchinchi ekologik konferensiya (COP3)	- Bu protokol, mamlakatlarga o'z atmosferasiga zararli gazlarning emissiyasini kamaytirish uchun belgilangan miqdorlarda qisqartirish vazifasini qo'ydi. Ushbu protokol har bir rivojlangan mamlakatlar uchun maxsus emissiyani kamaytirish kvotalarini belgiladi, rivojlanayotgan mamlakatlarga esa maxsus shartlar qo'ydi.
3-bosqich (2000-yillardan boshlab hozirgi davrlarni qamrab oladi.	-2012 yilda Rio-de-Janeyro shahrida "Rio+20" sammiti tashkil qilindi.	Rio+20 Deklaratsiyasi qabul qilinib, unda global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish, ekologik soflikni saqlab qolish va ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy qadamlar belgilab olingan.
	-2015 yilda Parij iqlim kelishuvi (Paris Agreement) imzolandi.	Parij iqlim kelishuvi issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va global iqlim o'zgarishlariga qarshi global harakatni kuchaytirishga qaratilgan. Bu kelishuv, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq tahdidlarga qarshi yuqori darajada xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadini qo'ydi.

* Muallif ishlanmasi



Ba'zi adabiyotlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarning ilk bosqichi 1950-1980 yillarni qamrab olishi haqidagi ma'lumotlar keltirilsada [7,9], ko'pchilik **birinchi bosqich** sifatida 1970-yillarga to'g'ri kelishini qayd etishadi. Bu davrda ekologik muammolar global darajada muhokama qilina boshladi. 1972 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan tashkil etilgan Stokgolm ekologik konferensiyasi ekologiya va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratishda muhim ahamiyat kasb etib, bu bosqichda ekotizim va barqaror rivojlanish prinsiplari shakllandi [3]. Yashil iqtisodiyotga e'tiborning kuchayishi bilan bog'liq 1980-2000 yillarni ikkinchi bosqich davri sifatida e'tirof etish mumkin. Bu bosqich resurslardan tejimli foydalanish masalalarini atrof-muhit muhofazasi bilan uzviylashgan yangi iqtisodiy modellarning shakllanishi va rivojlanishi bilan ahamiyatlidir. BMT tomonidan 1987-yilda tabiat, ekotizimlar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hamda kelajak avlodlar ehtiyojlari uchun resurslarni saqlashni nazarda tutuvchi "Barqaror rivojlanish konsepsiyasi"ni ishlab chiqish maqsadida Brundtland komissiyasi (World Commission on Environment and Development - WCED) tashkil etildi. Komissiyaning "Bizning umumiy kelajagimiz" nomli hisobotida "barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi insonlar ehtiyojlarini qondirish, ayniqsa, kambag'allik va ijtimoiy adolatni ta'minlash" ekanligi qayd etilgan bo'lib [9], bular hozirda barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari va mezonlariga aylanib ulgurgan. Ta'kidlash joizki, Barqaror rivojlanish konsepsiyasi global miqyosda tan olinib, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy o'sish modellari yaratila boshladi, xalqaro miqyosda Rio deklaratsiyasi va Kioto protokoli kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Rio deklaratsiyasi, 1992 yilda Braziliyada bo'lib o'tgan BMTning "Atrof-muhit va Rivojlanish" bo'yicha sammiti (Rio Earth Summit) da barqaror rivojlanish konsepsiyasini jahon miqyosida tan olish va tabiatni himoya qilishning muhimligiga diqqatni qaratish maqsadida qabul qilingan. Deklaratsiyada jami 27 ta asosiy tamoyillar va tavsiyalar belgilangan bo'lib, ularning bosh g'oyasi - ekologiyani muhofaza qilish, inson huquqlarini hurmat qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu sammit doirasida ishlab chiqilgan global barqaror rivojlanishni 21-asr davomida amalga oshirishga yo'naltirilgan "Yo'l Xaritasi ("Agenda 21")" barqaror rivojlanishning aniq maqsadlariga erishish uchun belgilangan strategik yo'nalishlar va aniq qadamlarni o'z ichiga olgan boshlag'ich hujjat hisoblanadi.

Kioto protokoli, BMT tomonidan 1997 yilda Yaponiyaning Kioto shahrida o'tkazilgan ekologik konferensiyasida (COP3) imzolangan xalqaro bitim bo'lib, u atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlar (ayniqsa, uglerod dioksidi) hajmini kamaytirish orqali global isishning oldini olish maqsadini ko'zlaydi. Bu protokolda rivojlangan mamlakatlar uchun uglerod emissiyalarini kamaytirish bo'yicha aniq majburiyatlar belgilangan bo'lib, 2005 yildan kuchga kirgan.

2000-yillardan boshlab hozirgacha davom etayotgan va taxminan 2030-yillarni ham qamrab oladigan yashil iqtisodiyotga global o'tish davrini uchinchi bosqich sifatida e'tirof etish mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda bu bosqich "Barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan iqtisodiy transformatsiya" (Transition to sustainable economic transformation) nomi bilan ham atalmoqda. Bu bosqichning ahamiyati iqtisodiy rivojlanishni ekologik va ijtimoiy jihatdan barqarorlashtirishda, ya'ni ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muammolarni kompleks hal qilishga javob berishga qaratilganligida namoyon bo'ladi. Bu bosqichning xususiyati iqlim o'zgarishi sharoitida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy transformatsiyalashning global rivojlanish strategiyalarini rivojlantirishga qaratilganligida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, 2012 yilda Rio-de-Janeyro sammitining 20 yilligiga bag'ishlab, tashkil qilingan "Biz istagan kelajak" (The Future We Want) mavzusi ostidagi "Rio+20" sammitida barqaror rivojlanishning yangi strategiyalari va yo'nalishlari belgilab olindi. Ushbu sammitda Rio+20 Deklaratsiyasi qabul qilinib, unda global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish, ekologik soflikni saqlab qolish va ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy qadamlar belgilab olingan. 2015 yilda Parij iqlim kelishuvi (Paris Climate Agreement) imzolaniib, mamlakatlar o'rtasida iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishi uchun barcha ishtirokchi davlatlar oldiga atmosferaga uglerod gazlari emissiyasini kamaytirish orqali global isishni Selsiy bo'yicha 1,5-2,0 darajada ushlab turishga erishish maqsadini qo'ydi. Tahlillarga ko'ra, sayyoramizda 2030 yilga kelib atmosferaga chiqarilayotgan tashlanmalarning umumiy hajmi 55 gigatonna yetishi mumkin. Haroratni 1,5-2 darajada ushlab turish uchun tashlanmalar miqdori 40 gigatonnadan oshmasligi zarur. Shu sababli Parij kelishuvi doirasida rivojlanayotgan, kambag'al hamda ekologik muammolar bilan to'qnashayotgan mamlakatlarga moliyaviy-texnik yordam ko'rsatish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish bo'yicha strategiya va chora-tadbirlar muhokama qilindi. Shuningdek, aynan shu yilning sentabr oyida BMTning 70-assambleyasida "2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari (The 2030 Agenda for Sustainable Development-SDGs)" qabul qilindi. Ushbu hujjat bilan jahonda barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadi va 169 ta aniq vazifa belgilanib, bular 2030 yilgacha global miqyosda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalarini qamrab olgan. O'zbekiston 1993 yilda BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasiga qo'shildi, 1999 yilda esa Kioto protokolini, 2017 yilda Parij bitimini imzoladi. O'zbekistonda ilk ekologik muammo va tushunchalar 1950-yillardan, Orolning qurishi oqibatida yuzaga kela boshladi. Parij bitimi Orolbo'yi ekologik inqirozi, atrof-muhit ifloslanishi, cho'llanish, qurg'oqchilik, iqlim o'zgarishi kabi salbiy oqibatlari bilan kurashish, xalqaro hamkorlik, iqlimiy grantlar va boshqa investitsiya resurslarini jalb qilish imkoniyatini beradi [2]. Bitimni amalga



o'shiring yuzasidan milliy miqyosda belgilanadigan hissa bo'yicha – 2030 yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish miqdoriy majburiyatini qabul qildi. Bugungi kunda yurtimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun izchil institutsional va tashkiliy choralar ko'rilmogda. Aytish joizki, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, avvalombor, global, milliy va mahalliy miqyosda yuz berayotgan ekologik jarayonlarni hisobga olgan holda tarkibiy va institutsional o'zgarishlar strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga bevosita bog'liq. Qayd etish joizki, bugungi kunda O'zbekistonda ekologiyaga zarar yetkazmagan holda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan hamda tegishli xalqaro normalarga mos huquqiy baza yaratilgan. 2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish; energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish; iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash; “yashil” iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish kabilar strategiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi. Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirish orqali 2030 yilgacha bo'lgan davrda quyidagi natijalarga erishish mo'ljallanmogda:

2-jadval.O'zbekistonda 2030 yilda “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi maqsadli ko'rsatkichlari.

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2030 yilda kutilayotgan natija
1	Issiqxona gazlarini 2010 yilga nisbatan solishtirma ajratmalari	%	35 foizga qisqartirish
2	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarish quvvati	GVt	15 gigavatga oshirish
3	Elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi	%	30 foizdan ko'proqqa oshirish
4	Sanoatda energiya samaradorligi	%	20 foiz
5	Suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish	ga	1mln.gektar
6	Yashil maydonlar	%	30 foiz
7	O'rmon fondi zahiralari ko'rsatkichlari	metr/kub	90 mln
8	Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash	%	65 foizdan oshirish

*Muallif ishlanmasi

Bu o'rinda taqqoslash uchun, O'zbekistonda 2020 yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh, shamol, suv, biomassa energetika hamda geotermal energiya) ulushi 3% ni tashkil etib, mamlakatning umumiy energiya zaruriyatining 97% tabiiy gaz va uglerod manbalaridan qamrab olingan. 2020 yilda O'zbekistonda 208 million tonnaga yaqin issiqxona gazlari (CO₂) emissiyalangan bo'lib, shundan energetika va transport sektorining ulushi qariyb 61 foizni tashkil etgan. Mamlakatimizda iste'mol qilinadigan suvning 85 foizi transchegaraviy, ya'ni, tashqaridan keladi. Suv resurslarining 90 foizi esa qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Mutaxassislar fikricha, iqlim o'zgarishi hamda Afg'onistonda Qo'shtepa kanalini qurilishi Amudaryo havzasida 2030 yilga borib qariyb 30 foizga qisqarishi mumkin. Suvni umumiy qisqarishi Qo'shtepa kanali va iqlim o'zgarishi hisobiga 2028 yilda 18,9 foizgacha, 2030 yilda 29,4 foizgacha yetishi mumkin [10], bu esa mamlakatimiz va uning mintaqalarida suv tanqisligi muammosi sababli jiddiy muammolarni tug'diradi. Shu sababli suv tejovchi innovatsion sug'orish texnologiyalarini joriy etish dolzarbdir. O'zbekistonda suv tejovchi texnologiyalar bilan qamrab olingan maydonlar 2017 yilda 28 ming gektar bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 1,9 million gektarga, shu jumladan, tomchilatib sug'orish 561 ming gektarga yetkazildi. Tejamkor texnologiyalardan foydalanish hisobiga joriy yilda 2 milliard kub metr suv tejilishiga erishildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistondagi hozirgi ekologik holatni uzoq yillar davomida amalga oshirilgan iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarning natijasi sifatida baholash mumkin. Ekologik tizimda kuzatilayotgan ba'zi salbiy o'zgarishlar, yillar davomida qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan nooqilona foydalanish, chiqindilar utilitatsiyasi bilan muammolar, sanoatni rivojlanish sur'atlarini hamda urbanizatsiya jarayonlarini tezlashishi kabilar tabiiy resurslar va energiya sarfini ko'payishi, atrof-muhitni ifloslanishi kabi muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun tabiiy resurslardan foydalanishda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy modellarga o'tish zaruriyatini tug'dirmogda. Yuqoridagi



fikrlarga asoslanadigan bo'lsak, O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tishning eng muhim omillariga e'tibor qaratish lozim. Bu omillar quyidagilar:

- Qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarish uchun quyosh, shamol va biomassa energiyasini ishlab chiqarishga sarmoyalar kiritishni oshirish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan milliy va qonunchilikni va strategik dasturlarni takomillashtirish;
- Energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llashning innovatsion texnologiyalarini joriy etish;
- Qishloq xo'jaligi uchun zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish, suvni tejash tizimlari orqali bu muammoni kamaytirish;
- Aholining ekologik savodxonligini oshirish hamda yashil iqtisodiyot bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar qo'llash.

Yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi bir qator bosqichlarda amalga oshirilib, bunda global ekologik muammolar, iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikka qaratilgan harakatlar uzviy bog'likda amalga oshiriladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish har bir mamlakatning o'z moslashish strategiyasiga bog'liq bo'lib, uning natijalari atrof-muhitni saqlash va aholi uchun barqaror rivojlanish shartlarini yaratishga yordam beradi. Bu maqsadlarga erishish uchun davlat va xususiy sektorning ishlab chiqarish va ekologik xavflarni minimallashtirish borasidagi sa'y-harakatlari muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son. <https://lex.uz/docs/-4539502>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi 2018-yil 2-oktabr, O'RB-491-son qonuni
3. United Nations Conference on the Human Environment, 5-16 June 1972, Stockholm.
4. Brundtland, G. (1987). "Our Common Future". World Commission on Environment and Development. Oxford University Press.
5. G. D. Sweeney. "The Green Economy Reader: Lessons in the Transition to a Sustainable World" (, 2013).
6. Robert Costanza. "The Value of the World's Ecosystem Services and Natural Capital"// Nature, 1997
7. Markus Hagedorn. "Green Economy: A Sustainable Development Agenda" // Springer, 2016
8. Tim Jackson. "Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet"// Routledge, 2009
9. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev va b. Yashil iqtisodiyot: Darslik / –Toshkent.: Universitet", 2020. -262 b.
10. Carolin Busch. Qush-Tepa canal to significantly impact Uzbekistan's agriculture. J. German Economic Team, NL 25 | July - August 2023. <https://www.german-economic-team.com/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>